

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

15-APREL

ANDIJON, 2024

NUROTA KASHTACHILIK SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXI, BUGUNGI KUNDAGI TAROVATI, KASHTACHILIKDA BADIY BEZAK BUYUMLARINING O'ZIGA XOSLIGI

Shaxzoda G'opporova

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti,
nomoddiy madaniy merosni ilmiy-tadqiq etish bo'limi
kichik ilmiy xodim*

Annotatsiya: Ushbu maqolada nomoddiy madaniy merosning hunarmandchilik yo'nalishida Nurota kashtachilik san'atining rivojlanish tarixi, bugungi kundagi tarovati, kashtachilikda badiiy bezak buyumlarining o'ziga xosligi haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.

Аннотация: В данной статье собраны мысли и комментарии об истории развития Нуратинского вышивального искусства в ремесленном направлении нематериального культурного наследия, его актуальности в наши дни, уникальности художественно-декоративных изделий в вышивке.

Annotation: This article contains thoughts and comments about the development history of Nurota embroidery art in the craft direction of intangible cultural heritage, its freshness today, and the uniqueness of artistic decorative items in embroidery.

Kalit so'zlar: (nomoddiy madaniy meros, badiiy bezash, etnomadaniy muhit, an'anaviy hunarmandchilik, kashtado'z, andoza)

Ключевые слова: Ключевые слова: (нематериальное культурное наследие, художественное оформление, этнокультурная среда, традиционные ремесла, вышивка, узор)

Key words: (intangible cultural heritage, artistic decoration, ethnocultural environment, traditional crafts, embroidery, pattern)

Yurtboshimiz rahnamoligida halq amaliy san'ati turlarini rivojlantirishga qaratilayotgan doimiy e'tibor, yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar tufayli ming yillik tarixga ega kashtachilik o'zining yangi bosqichiga ko'tarildi.

Nomoddiy madaniy merosni asrash avaylash va uni o'z holicha saqlash kabi ishlarga bugun katta e'tibor qartildi.

Kashtachilik kashta tikish kasbi, amaliy san'atning qadamiy sohalaridan biri bo'lib kelgan. Badiiy kashtachilik o'zbeklarda qadimdan tarqalgan, eng sevimli mashg'ulotlaridan kasblaridan biri bo'lib hisoblangan.

Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega. Buni Arxeologik topilmalar kashtachilikning deyarli barcha halqlarda qadimiyligini, iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda har bir halqning madaniyati, san'ati, kasb-hunar turlari bilan birga, ularni ta'sirida yaratilgan badiiy san'at turi ekanligini isbotlab berdi.

Kashtachilikni paydo bo'lishi, qadimda teridan qilingan kiyimlarda bog'lam va choklarni yuzaga kelishi bilan bog'liq.

Davrlar mobaynida toshlardan, suyaklardan tayyorlangan bigizlar yordamida to'qish, shuningdek mato to'qish, bo'yash va boshqa ishlar amalga oshirilgan. Kashtachilik taraqqiyotini Qadimgi Osiyo, Yevropa, Amerika madaniy yodgorliklarida, tarixiy manbalaridagi kashtalar tasvirida, shuningdek, saqlanib qolgan kashtachilik namunalaridan

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

15-APREL

ANDIJON, 2024

kuzatish mumkin. Kashtachilik maxsulotlarining eng qadimiy nuxxalari hozirgacha saqlanmagan. Qadimiy manbalarda ko'rsatilishicha, asosan tarixiy kashtalarda jang lavhalari aks ettirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasini ixtiro bo'lgandan so'ng, sanoati rivojlangan mamlakatlarda kashtachilik korxonalarini vujudga kela boshlagan. Ishlarni yo'lga qo'yilishi an'anaviy kashtachilikni inqirozga uchratdi. Kashtachilikdagi mavjud an'analar susayib ketdi, arzon baho mashina kashtalari katta mahorat va ko'p mehnat talab qiladigan qo'l kashtalarini siqib chiqaradi.

Kashtachilik rivojlangan davlatlarda tasviriy san'atning o'rni katta bo'lgan. O'z davrining buyuk rassomlari kashtado'zlar uchun andozalar tayyorlab berishgan va bunday kashtalar yuqori baholanib, yuksak san'at darajasiga ko'tarilgan. Shuningdek, XIII-XIX asrlarda mansabdar shaxslarning liboslarini bezashda badiiy kashta bezaklaridan ham qimmatbaho toshlardan foydalanilgan.

XIX asrda Buxoro, Samarqand, Toshkent, Nurota, Shahrisabz, Jizzax, Farg'ona kabi katta-katta kashtachilik markazlari bo'lgan. Mazkur kashtachilik maktablarida liboslarga tikilgan kashtalar alohida ahamiyatga ega. XIV-XV asrlarga mansub miniyaturlar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispaniya elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan.

1467 - yili Kamoliddin Behzod «Zafarnoma»ga ishlagan. «Temurtaxt»-da miniyatyrasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. XX asrning 2-yarmida tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi.

O'zbek kashtachiligi qo'shni halqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. O'zbek kashtalariga nazar solsak, unda hind, xitoy, rus, afg'on, qozoq, qirg'iz, tojik kashtachiliklarining usul va uslublarini uchratamiz.

O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, asosan ayollar bu hunar bilan ko'proq shug'ullanishgan.

Kashtachilik kashta tikish kasbi, amaliy san'atning qadimiy sohalaridan biri bo'lib kelgan. Badiiy kashtachilik o'zbeklarda qadimdan tarqalgan, eng sevimli kasblaridan biri bo'lib hisoblangan.

Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega. Buni arxeologik topilmalar kashtachilikning deyarli barcha halqlarda qadimiyligini, iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda har bir halqning madaniyati, san'ati, kasb-hunar turlari bilan birga, ularni ta'sirida kelib chiqqan.

Qadimiy kashtalar mahalliy kosiblar tomonidan ishlab chiqarilgan karbos matolarga tikilgan. Bunday matolarning eni 25 sm bo'lgan.

XX asrni ikkinchi yarmida kashtalar uchun alvon matosi ishlatila boshlagan. Keyinchalik turli ranglarga bo'yagan las, tik kabi matolardan foydalanishgan. 80-90 yillarda esa kashtalar uchun shoyi, adres, baxmal, matolarini ishlatishgan. Pliniyning aytishicha, Vavilon kashtachiligi qadimdan mashhur bo'lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikishni o'sha yerda kashf etishgan. Keyinchalik vavilon Rim imperiyasi tarkibiga kirdi, zar yoki jun ip qo'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan shuhrat qozongan.

Respublikamiz hududida mavjud kashtachilik maktablari juda boy tarixiy-ijtimoiy, falsafiy-ramziy hamda amaliy san'atning rang-barang ko'rinishi bilan alohida o'rin tutadi. Shuningdek, buyum turlari, rangi, naqshi, choki (texnik uslubi), o'lchami ham bir-biri bilan farqlanadi. Nurota, Samarqand, Toshkentda bosma chok, Shahrisabz va Kitobda kandahayol va iroqi, Buxoroda yo'rma choklar keng qo'llaniladi. Lekin ba'zi buyumlarning o'xshash tomonlari ham uchrab turadi. So'zana, zardevor, joynamoz, choyshab, belbog' kabi kashta buyumlari deyarli barcha viloyatlarda tikiladi.

Tarixi uzoq yillarga borib taqaladigan afsonaviy va sirli Nurotada ham an'anaviy halq hunarmandchiligi qadimdan rivojlangan.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

15-APREL

ANDIJON,2024

Aholi hunarmandchilikning 30 dan ortiq tarlari ya’ni sartaroshlik, kashtachilik, kulolchilik, bilan shug‘ullanishadi. Bundan tashqari Nurotada 120 dan ortiq oilalar milliy kashtachilik bilan shug‘ullanishadi. Shuning orqasidan ro‘zg‘or tebratishadi, to‘ylar qilib, hovlilar solishadi. Har bir kashtada nafosat olami aks etgan, nafislik, fusunkorlik va jumjimadorlik hamda did bilan yaratilgan kashtalar igna va bigizda tikilib, ba’zida ularni yaratishga 6-7 oylab vaqt ketadi. Ayniqsa, tobadoni, kosagul, panjigul, anor kabi 50 ortiq nusxalarda tovus, bodom, qalampirnusxa va lola naqshlaridan keng foydalaniladi. Nurotadagi har bir oilada albatta kashta bor, chunki qizlar turmushga chiqish oldidan albatta seplari uchun ham so‘zanalar tikishadi. Qo‘l mehnati bilan yaratilgan san’at asari darajasidagi Nurota kashtalarining narxi jahon bozorida ancha baland.

Asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy hunarmandchilik turlaridan biri kashtachilikning har bir hududga xos maktablari mavjuddir. Nurota kashtachilik maktabi ham dunyoga tanilib taratilib bormoqda.

San’atning bu yo‘nalishi insondan qalb go‘zalligini talb etadi. O‘ylaymizki bizga milliy qadriyatlarimizni nomoddiy madaniy merosimizni asrab avaylashda, uni kelajak avlodga o‘z holicha yetkazishda Nurota kashtachilari beminnat hizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-405-sonli qarori.
2. O‘zbekiston san’ati. (1991-2001 yillar) Toshkent “Sharq” 2001 yil
3. I.Jabborov. O‘zbek halq etnografiyasi.Toshkent. “O‘qituvchi” 1994 yil